

1-sinf “O‘qish savodxonligi” darsida o‘quvchilarni kreativ fikrlashga o‘rgatish maqsadida, qiziqarli, o‘ylantiruvchi, mantiqiy fikrlashlari uchun “Oylar kelar ketma-ket” deb nomlangan she’rdan foydalanish maqsadga muvofiq, o‘quvchilar fasllarda bo‘ladigan o‘zgarishlarga qarab oy nomlarini mustaqil nuqtalar o‘rniga qo‘yib o‘qishlari talab etiladi:

OYLAR KELAR KETMA-KET

Dilnavoz Najimova

Kel, sanaymiz – turma chet,
Oylar kelar ketma-ket.

(Dekabr, yanvar, fevral)

_____ O‘ynaymiz qorbo‘ronlar.

_____ bersa darak,

(Mart –aprel)

Pishar somsa, sumalak.

_____ ham yaxshi, ham yomon

May

Axir bor-da imtihon.

_____ so‘ng,

Iyun, iyul, avgust

Hamma ishlar bo‘lar o‘ng.

Sumkalarni olamiz,

Biz maktabga boramiz.

_____ boq, *Oktyabr, noyabr*

Atrof bo‘lar zarg‘aldoq,

Kel sanaymiz turma chet,

Oylar kelar ketma-ket,

Bu she’rni o‘qishdan avval o‘quvchilar bilan yil, oy, fasllar haqida suhbat va savol-javoblar o‘tkizilishi maqsadga muvofiq bo‘ladi. Yana tabiatda yuz beradigan o‘zgarishlar, tabiatning go‘zalligi, mavsumiy ishlar aks ettirilgan videoroliklardan foydalanish ham o‘quvchilarning kreativ fikrlashiga yordam beradi.

She’rni o‘qib bo‘lgandan keyin sinf o‘quvchilarini 4 guruhga bo‘lib, 4 ta fasldagi oylar, oylardagi muhim sanalar, bayramlar hamda tabiatdagi o‘zgarishlar hamqida yozishlari, rasm orqali tasvirlashlari topshiriq qilib berilsa ham dars samaradorligi ortadi.